

TA'LIM JARAYONIDA METODIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17457371>

Mo'minova Adiba Odiljon qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika Universiteti Pedagogika
fakulteti 2- kurs magistranti*

Tel: +998946185333

e-mail: adibaxonmuminova1112@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish masalasi atroflicha yoritiladi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va samaradorlikka erishishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Shu bois maqolada innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faollikni shakllantirishdagi ahamiyati, interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va afzalliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Metodik savodxonlikni rivojlantirish jarayoni o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlari, balki ularni amaliyotda samarali qo'llash ko'nikmalari bilan ham uzviy bog'liqdir. Shuningdek, ushbu savodxonlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda, zamon talablariga mos pedagogik faoliyatni amalga oshirishda va o'quvchilarda yuqori sifatli bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada metodik savodxonlikni rivojlantirishning turli usullari, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning istiqbollari va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ham keltiriladi.

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается вопрос развития методической грамотности будущих учителей в образовательном процессе. В современных условиях одним из важнейших факторов повышения качества и эффективности обучения является широкое внедрение современных педагогических технологий. В связи с этим в статье анализируется значение инновационных подходов в формировании у студентов самостоятельного

мышления, креативности и активности, а также роль и преимущества интерактивных методов в повышении результативности обучения.

Развитие методической грамотности предполагает не только овладение теоретическими знаниями, но и умение эффективно применять их на практике. Кроме того, данная грамотность рассматривается как важный фактор формирования профессиональной компетентности учителя, реализации педагогической деятельности в соответствии с требованиями времени и обеспечения высокого качества знаний, умений и навыков учащихся. В статье также представлены различные способы развития методической грамотности, перспективы применения инновационных технологий в образовательном процессе и рекомендации, способствующие повышению их эффективности

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the development of methodological literacy among future teachers within the educational process. In today's context, the integration of modern pedagogical technologies into the learning process is considered one of the key conditions for improving the quality and efficiency of education. The article examines the importance of innovative approaches in fostering students' independent thinking, creativity, and active participation, as well as the role and advantages of interactive methods in enhancing the effectiveness of teaching and learning.

The development of methodological literacy involves not only acquiring theoretical knowledge but also the ability to apply it effectively in practice. Furthermore, methodological literacy is regarded as an essential factor in shaping a teacher's professional competence, enabling the implementation of pedagogical activities that meet contemporary requirements and ensuring the delivery of high-quality knowledge, skills, and abilities to students. The article also highlights various ways to foster methodological literacy, the prospects of applying innovative technologies in the educational process, and recommendations aimed at increasing their effectiveness.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimidan yuqori malakali, metodik savodxon mutaxassisnlarni tayyorlash talab qilinmoqda. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, tashkil qiluvchi va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Shu bois, metodik savodxonlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning dolzarb vazifasidir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchidan keng qamrovli bilim, metodik tafakkur, tahliliy yondashuv hamda pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash qobiliyati talab etiladi. Metodik savodxonlik – bu nafaqat dars o'tish metodlarini bilish, balki ularni sharoit va maqsadga mos holda tanlash, o'quvchilarning individual va jamoaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etish, o'quv jarayonini rejalashtirish va tahlil qilish malakasini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, metodik savodxonlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sanaladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, interaktiv metodlarni qo'llash, loyiha asosida o'qitish va raqamli ta'lim muhitidan samarali foydalanish metodik savodxonlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim va elektron resurslardan foydalanish jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni metodik jihatdan puxta tayyorlashda yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Shuningdek, ta'lim sifati va samaradorligi o'qituvchining metodik savodxonlik darajasiga bevosita bog'liq. Chunki metodik jihatdan tayyor bo'lgan pedagog o'quvchilarning bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini ham shakllantira oladi. Shu sababli, metodik savodxonlikni rivojlantirish masalasi nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki umuman ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifa sifatida qoraladi.

Dolzarblikni asoslovchi misollar va manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlarda (2020–2023 yillar) ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan⁸³. Chunki ta'lim sifati, avvalo, o'qituvchining yangicha fikrlashi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay bilishiga bog'liq. Shu sababli, bu qarorlar orqali pedagoglarni zamonaviy metodika asosida qayta tayyorlash, raqamli ta'lim muhitini yaratish, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish orqali mamlakatda ta'lim sifatini oshirish maqsad qilingan.

2. UNESCO (2019) tomonidan e'lon qilingan "ICT in Education" hisobotida o'qituvchilarning raqamli va metodik savodxonligi 21-asr ta'limining asosiy kompetensiyalari qatoriga kiritilgan⁸⁴. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, axborot

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori — 2020 yil 6 noyabrda «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qaror

⁸⁴ UNESCO. *ICT in Education: Policy, Infrastructure and Capacity Building*. Paris, 2019.

manbalaridan to'g'ri foydalanish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki raqamli vositalardan samarali foydalana olishi, innovatsion metodlarni dars jarayoniga tatbiq eta bilishi zarur. UNESCO hisobotida aynan shu jihatlar o'qituvchining professional salohiyatini belgilovchi asosiy ko'nikmalar sifatida qayd etilgan.

3. Pedagog olim A.V. Xutorskoy (2015) ta'kidlashicha, o'qituvchi metodik jihatdan savodxon bo'lmasa, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalar samaradorlik bermaydi, chunki texnologiya samaradorligi metodik yondashuvga bevosita bog'liqdir⁸⁵. Ya'ni, o'qituvchi o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun nafaqat texnik vositalardan foydalanishni bilishi, balki ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq tarzda qo'llay olishi zarur. Agar o'qituvchi metodik jihatdan yetarlicha tayyor bo'lmasa, eng ilg'or texnologiyalar ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, Xutorskoy ta'kidlaganidek, ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdan avval o'qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirish eng muhim shart hisoblanadi.

4. O'zbekiston tajribasida ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida oshirish uchun pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlashni taqozo etmoqda⁸⁶. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish muhim o'rin tutadi, chunki zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu holat bo'lajak o'qituvchilardan yuqori metodik tayyorgarlikni, ya'ni yangi texnologiyalarni o'z faniga moslashtira olish, ularni didaktik maqsadlarda samarali qo'llay bilish ko'nikmasini talab etadi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish faqat texnik yangilik emas, balki o'qituvchini zamonaviy metodik yondashuv asosida tayyorlash zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Asosiy qism

1. Metodik savodxonlik tushunchasi va uning pedagogik ahamiyati
Metodik savodxonlik – bu o'qituvchining o'quv jarayonini ilmiy asoslangan holda loyihalash, tashkil etish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalarining majmuasidir. U nafaqat metodlarni bilish, balki ularni to'g'ri tanlay olish, ta'lim maqsadiga moslashtirish va amaliyotda samarali qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli metodik savodxonlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim

⁸⁵ Xutorskoy A.V. *Sovremennye pedagogicheskie tekhnologii*. Moskva: Akademiya, 2015.

⁸⁶ Ziyayeva D. *Pedagogik texnologiyalar va ta'lim metodlari*. Toshkent: TDPU, 2021.

tarkibiy qismi hisoblanadi. Metodik savodxonlik quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

- metodik bilimlar darajasi (nazariy asoslar, didaktik prinsiplardan xabardorlik);
- metodik ko'nikmalar (darsni rejalashtirish, mos metodlarni tanlash, samarali uslubni qo'llash);
- tahliliy kompetensiya (dars jarayonini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirish);
- innovatsion yondashuv (zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yangi metodlarni tatbiq etish).

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning metodik savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni.

2.1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) AKTdan foydalanish metodik savodxonlikni rivojlantirishda eng asosiy omillardan biridir. Multimediali taqdimotlar, interaktiv dasturlar, elektron platformalar (Moodle, Google Classroom, Ziyonet) o'qituvchi faoliyatini qulaylashtiradi, dars samaradorligini oshiradi va talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi.

Misol: Masofaviy ta'lim jarayonida videodarslar, test platformalari va virtual laboratoriyalar metodik savodxonlikni oshirishning amaliy namunasidir.

2.2. Interaktiv metodlar. Interaktiv metodlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. "Aqliy hujum", "Debat", "Klaster", "Keys-stadi" kabi usullar dars jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. O'qituvchi bu metodlarni to'g'ri tanlasa va sharoitga mos qo'llasa, uning metodik savodxonligi yanada kuchayadi. Misol: Keys-stadi metodidan foydalanish talabalarga muammoli vaziyatni tahlil qilish va mustaqil yechim topish imkonini beradi, bu esa metodik savodxonlikning amaliy jihatini mustahkamlaydi.

2.3. Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning) Loyihaviy ta'lim metodik savodxonlikni rivojlantirishning samarali yo'nalishidir. Bu texnologiya o'quvchilarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi esa loyihani tashkil etish, jarayonni nazorat qilish va natijalarni baholashda metodik yondashuvni to'g'ri qo'llashga o'rganadi. Misol: Pedagogika fakulteti talabalarining "Innovatsion dars ishlanmalari" loyihasi orqali ular dars rejasini yaratish, metodlarni tanlash va ularni amaliyotda sinab ko'rishga o'rgatiladi.

2.4. Gamifikatsiya (o'yin texnologiyalari) Ta'limda gamifikatsiya elementlarini qo'llash motivatsiyani oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va dars jarayonini qiziqarli qiladi. O'qituvchi o'yin metodlarini metodik jihatdan asosli qo'llagan

taqdirda, uning savodxonligi oshadi va o'quvchilarda bilim olishga ijobiy munosabat shakllanadi.

Misol: "Kahoot", "Quizizz" kabi onlayn platformalarda tashkil etilgan o'yin-testlar talabalar bilimni tezkor baholashga xizmat qiladi.

2.5. Masofaviy va raqamli ta'lim texnologiyalari. Raqamli ta'lim texnologiyalari (e-learning, blended learning) bugungi kunda metodik savodxonlikni rivojlantirishning eng zamonaviy shakllaridan biridir. O'qituvchi virtual muhitda darsni rejalashtirishi, elektron kontent yaratishi, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqishi orqali o'z metodik bilim va ko'nikmalarini boyitadi.

Misol: Pandemiya davrida masofaviy ta'lim joriy etilishi o'qituvchilardan yuqori metodik savodxonlikni talab qildi va natijada ko'plab pedagoglar raqamli savodxonlikni ham egallashga majbur bo'ldi.

Amaliy tajriba va kuzatuvlar Xulosa va takliflar

- Metodik savodxonlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasida markaziy o'rinni egallaydi.
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ta'lim samaradorligini oshiradi.
- Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda interaktiv metodlarga asoslangan mashg'ulotlar ko'paytirilishi lozim.
- Metodik savodxonlikni rivojlantirish uchun doimiy malaka oshirish va innovatsion tajribalarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslarda talabalar bilimni mustahkamroq o'zlashtiradi, o'z fikrini erkin bayon qiladi va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligi oshgan sayin ular ta'lim jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil eta oladi.

Masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetida olib borilgan tajriba-sinov mashg'ulotlarida interaktiv metodlardan foydalanilgan guruhlarda talabalar natijalari 20-25% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan (Ziyayeva, 2021). Bu holat metodik savodxonlikning o'quv jarayoniga ijobiy ta'sirini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori — 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qaror

2. UNESCO. *ICT in Education: Policy, Infrastructure and Capacity Building*. Paris, 2019.
3. Xutorskoy A.V. *Sovremennye pedagogicheskie texnologii*. Moskva: Akademiya, 2015.
4. Ziyayeva D. *Pedagogik texnologiyalar va ta'lim metodlari*. Toshkent: TDPU, 2021.